



**CHE TILLARINI (FRANSUZ TILI) O'RGATISHDA QO'LLANILADIGAN
ZAMONAVIY METODLAR**

Xojabayeva Zarina Odilbek qizi

O'zDJTU Roman-german filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Hozirgi kunda chet tillari rivojlanib borayotgan davrda uni o'r ganuvchilar soni ham ortib bormoqda. Shu sababli ushbu maqolada chet tillarini o'rgatishda turli xil metodlardan foydalangan hollarda tillarni oson o'rganish usullarini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Metod, internet, insert

Kirish: Umumiy chet tillarini puxta va chuqur o'rganish uchun yaxshi dastur mukammal darslik, bat afsil qo'llanmalar hamda nazariy tayyorlangan metodlar kerak albatta. Bugungi rivojlanayotgan davrda har bir sohada, xususan ilm –fan sohasida dunyo tillaridan biri bo'lmish fransuz tiliga katta e'tibor qaratilganini kuzatamiz. Zamonaviy dunyo nafaqat siyosiy va iqtisodiy balki, til sohasidagi raqobatning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Bir qator sohalarda fransuz tili ham sezilarli yutuqlarga erishdi. Kuzatishlar natijasida shuni ko'rishimiz mumkinki, hozirgi zamonaviy ta'lilda interaktiv metodlar, zamonaviy darsliklardan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etishga bo'lgan talab kundan kunga o'sib boryapti. Zamonaviy metodlar va darsliklarning o'rni benihoya kattadir. Bugungi kun statistika ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak fransuz tili yaxshi rivojlangan tillardan biridir. Wif ma'lumotlariga ko'ra internetda fransuz tilining mavjudligi ortdi, foydalananuvchilar soni bo'yicha dunyoda to'rtinchi, blok mualliflari bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. Fransuz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar hayoti madaniy an'analarida fransuz tili muhim o'rinn tutadi. Yoshlik davri inson hayotida aqliy o'sish, intelektual rivojlanish uchun eng qulay, samarali yillar hisoblanadi. Bu davrda bolalarning qiziqish doirasi kengayadi. Bolalarga fransuz tilini oson usullarda o'rgatish metodi. Bolalarni til o'rganishga qiziqtirish va ular o'rtasida raqobatni kuchaytirish uchun turli xil metodlardan foydalana olamiz. Chet tillarini xususan fransuz tilini o'rgatishning bir nechta samarali usullari mavjud. Jumladan dars jarayonida fransuz tilidagi videoroliklar, multfilmlarni ko'rsatish, ularga kartochka tarqatish va qiziqarli savollar metodidan foydalinish mumkin. Bu metodlar o'quvchilarning chet tili o'rganish jarayonini qiziqarliroq bo'lishini ta'minlaydi. Bundan tashqari tadqiqot jarayonida o'tkazilib kelayotgan metodlarni ham kuzatishimiz mumki. «**Qiziqarli savollar**» metodi : bunda o'quvchilarga o'tilgan mavzu yuzasidan savol beriladi, til bolaning aqliy rivojlanish darajasini muayyan ish-harakat faoliyatini bajarishga doir ko'nikma, shaxsiy va irodaviy sifatlari, ruhiy xususiyatlarini aniqlash va baholashda qisqa standart tekshirish shakli. «**Kviz kartochkalar**» - bunda o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma o'quvchilar bir vaqtida darsda ishtirot etishini ta'minlaydi, bu esa vaqt ni ancha tejaydi. Bu o'quvchilarina estetik zavq bag'ishlaydi, fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada

"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



orttiradi. Bu usul o'qituvchining bolalar bilan ishlash jarayonidagi faolligini ta'minlaydi va ular o'rtaqidagi uzviy aloqani yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. "**Ro'lli o'yinlar**" bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin. Shuningdek oliv ta'lim muassasalarida talabalrni chet tillarini o'rganishga jalb qilish maqsadida zamonaviy metodlar. Bu o'yin usulini qo'llash orqali o'quvchilar o'zlashtirishi qiyin bo'lgan mavzularni o'zları bemalol o'zlashtirish imkonini beradi. "**Insert**" metodi–bunda talabalarga biron matn yoki dialog taqdim etiladi va talabalardan uni qayta gapirib berish talab etiladi. Bu metod matn bilan ishlaganda faollikni, kuzatuvchanlikni va og'zaki nutqni rivojlantirishda yordam beradi. Demak, yuqorida ko'rsatilgani kabi har bir metodning chet tillarini o'rganuvchi va o'rgatuvchi samarali usullari mavjud. "Insert" metodining afzalliklari shundaki, unda munozara yoki o'quv jarayonida suhbat bilan bog'lanib ketadi. O'quvchilarda muloqot yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, o'z fikrini faqat yozma emas, balki og'zaki bayon etish mahorati mantiqiy fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda chet tillarini o'rganishga ehtiyoj yuqori bo'lgan bir pallada til o'rganish jarayonida zamonaviy metodlardan, innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish bu jarayonlarni tez va samarali bo'lshiga olib keladi. Bunday usullarning barchasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtaqidagi faol harakat ko'zda tutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Fransuz tilida kommunikativ qobilyatlarni shakllantirish" (Akbarova SH.)
2. "So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi" (Ergashova D)
3. "Fransuz tili interfaol va zamonaviy usullardan foydalanish samarasi" (Raximova G).
4. "Chet tilini o'qitishda yordamchi vositalardan foydalanish" (M.Xoldorova).
5. "Fransuz tilini o'qitishda zamonaviy innovations texnologiyalar" (Irgasheva N)